O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Навоий вилояти

210100 Navoiy sh. Zarapetyana-10, Tel-Fax (436)- 220-50-01. navoi.ex@mail.ru www.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: YILMURATOV DIYORJON FAYZULLAEVICH
Sana:25-10-2022 yil

Yig'ma ekspert xulosasi № 66871

Obyekt nomi «Navoiy viloyati Tomdi tumani 8-sonli MTT binosini joriy ta'mirlash.»

Buyurtmachi – Tomdi tumani maktabgacha ta'lim bo'limi.
Bosh loyihachi - «Loyixa Nur Geo» MCHJ
Litsenziya 01.07.2020 yilda berilgan АЛ-001134-sonli litsenziya, amal qilish muddati cheklanmagan.
Moliyalashtirish manbai - Byudjet mablag'lari.
Bosh pudratchi – Tender savdolari asosida aniqlanadi.
Qurilish turi Joriy ta'mirlash.
Murojaat raqami: № 64114

1. Loyihalash uchun asos

1.1. Binoning texnik xolati boyicha tuzilgan dalolatnoma Tomdi tumani maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri tomonidan tasdiqlangan 29.09.2022yil.

1.2. Tomdi tumani 8-sonli MTT binosini joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha topshirig'i Tomdi tumani maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri tomonidan tasdiqlangan 108-son 29.09.2022yil.

1.3. Tomdi tumani 8-sonli MTT binosini joriy ta'mirlash bo'yicha nuqsonlar dalolatnomasi Tomdi tumani maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri tomonidan tasdiqlangan 29.09.2022yil.

1.4.Buyurtmachining 29.09.22 yildagi 01-01-507-sonli loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlar ilova qilingan xati.

1.5. Qurilish material narxlar dalolatnomasi Tomdi tumani maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri tomonidan tasdiqlangan 2022yil.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Tomdi tumani 8-sonli MTT binosini joriy ta'mirlash bo'yicha buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan nuqsonlar dalolatnomasi asosida ishlab chiqilgan smeta xujjatlari.

2.2. Ob'ekt narxining smeta qismi.

Umumiy qiymati QQS bilan 195 970,586 ming so'm hisoblangan.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Hudud va qurilish maydonchasi tavsifi.

Tomdi tumani 8-sonli MTT hududi quyidagi iqlim sharoitlariga ega:

Iqlim mintaqasi - IVA.

Bino-iqlim zonasi - II.

Qishki tashqi havo harorati -14^{0}C.

Normativ qor yuki - 0,50 kPa.

Standart shamol bosimi - 0,38 kPa.

Tuproqni muzlatishning me'yoriy chuqurligi -0,78m.

Qurilish hududining seysmikligi - 7 ball.

Tomdi tumani 8-sonli MTT binosini joriy ta'mirlash loyihasi, buyurtmachining tasdiqlagan nuqsonlar dalolatnomasiga muvofiq ishlab chiqilgan smeta hujjatiga qo'yidagi ish turlari nazarda tutilgan:

Issiqlik tizimi:

- isitish qozoni o'rnatish;
- to'gri to'rtburchak yoki aylana shakldagi bak o'rnatish;
- sirkulyatsiya nasosini o'rnatish;
- polietilen yoki polipropilen bosimda ishlovchi suv quvurlarini o'rnatish;
- quvurlarni biriktiruvchi otvod va mufta o'rnatish;
- alumin profilli isitish radiatorlarini o'rnatish.

Qozonxona binosini qurish:

- poydevor qurish uchun tuproq ishlari;
- poydevor asosiga sheben to'shash;
- lentasimon beton poydevor qurish;
- yengil beton bloklardan devor qurish;
- metal peremichka o'rnatish;
- tomga yogoch konstruksiyalar mustahkamlanib profnastil tom qoplamasini qurish;
- shiftga metall list o'rnatish;
- polga beton qoplama qurish;
- alumin profilli framuga va temir eshik o'rnatish;
- devorni sement – oxak qorishmasi bilan suvoqlash;
- suv – oxak aralashmasi bilan devorni bo'yoqlash;

Santexnika:

- elektr suv isitgich o'rnatish;
- elektr nasos o'rnatish;
- polietilen yoki polipropilen bosimda ishlovchi suv quvurlarini o'rnatish;
- unitaz, dush, rakovina va smesitel o'rnatish;
- polietilen oqava suv quvuri o'rnatish.

Temir betondan 2x2m. olchamdagi rezervuar qurish.

Binoning eshik va deraza romlarini tamirlash:

- eshik va deraza romlarini demontaj qilish;
- alumin profilli deraza romlarini o'rnatish;
- MDF eshiklar o'rnatish;

- deraza romlari ostiga PVX profil o'rnatish;
- temir eshik o'rnatish.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Loyihada ko'zda tutilmagan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Buyurtmachi ushbu ishchi loyihani qo'yidagi tashkilotlar bilan kelishib olinishi zarur:

- Navoiy viloyati FVB (yong'in xavfsizligi) bilan.
- Tomdi tumani sanitariya va epidemologiya osoishtalik markazi bilan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Smeta hujjatlari.

Qurilish tannarxini joriy narxlarda hisoblash Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-son qaroriga muvofiq xarajatlarni prognozli joriy narxlarda hisoblash asosida resurs usulidan foydalangan holda amalga oshirilgan, va ShNK 4.01.16-09 O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tomonidan TNQURILISH 5.0 dasturiy majmuasida ishlab chiqilgan "Shartnomadagi joriy narxlarda qurilish qiymatini aniqlash qoidalari".

Ish haqi xarajatlari resurs smetasining bir qismi sifatida belgilangan qurilish ishchilarining mehnat xarajatlarini va ishchilarning o'rtacha soatlik ish haqini ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Ishchilarning o'rtacha soatlik ish haqi buyurtmachining ma'lumotlariga ko'ra qabul qilingan.

Qurilish materiallari, asbob-uskunalar, moddiy-texnika resurslari narxlari buyurtmachi ma'lumotlari va joriy narxlar katalogiga muvofiq (2021-yil 4-chorak uchun) foydalangan.

Mashina va mexanizmlarni ishlatish narxi resurs varaqlari va buyurtmachining dastlabki ma'lumotlariga muvofiq brendlarga qo'yiladigan me'yoriy talablar asosida olingan.

Pudratchining boshqa xarajatlari Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dastlabki ma'lumotlarga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarning 18% doirasida qabul qilingan.

6.2. Tomdi tumani 8-sonli MTT binosini joriy ta'mirlash loyiha materiallari tasdiqlangan nuqsonlar dalolatnomasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

6.3. Shartnoma bo'yicha import va texnologik asbob-uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va bu bilan bog'liq xarajatlar ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

6.4. Ekspertiza jarayonida mahalliy ekspert aniqlagan kamchiliklar loyihani ko'rib chiqish davomida loyihachi tomonidan bartaraf etildi.

6.5. Tomdi tumani 8-sonli MTT binosini joriy ta'mirlash loyihasi bo'yicha buyurtmachi tomonidan aniqlangan boshlang'ich qurilish qiymati QQS bilan 195 970,586 ming so'mni tashkil etgan.

Tomdi tumani 8-sonli MTT binosini joriy ta'mirlash loyihasining qurilish tavsiya etilgan qiymati QQS bilan **195 970,586** ming so'm qilib belgilandi, shu jumladan:

- qurilish-montaj ishlari – 158 463,232 ming so'm;

- Uskunalar – 11 945,974ming so'm;

- QQS – 25 561,381ming so'm,

Bundan tashqari: buyurtmachining boshqa xarajatlari QQS bilan – 9 798,529 ming so'm.

7. Xulosalar.

7.1. Tomdi tumani 8-sonli MTT binosini joriy ta'mirlash loyihasi ekspertiza natijalarini inobatga olgan holda ushbu xulosaning 5.1-bandiga muvofiq ijobiy ma'qullangandan so'ng qo'shimcha ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Qurilishning tavsiya etilgan qiymati ish shartnomasini tuzish uchun asos bo'lmaydi.

7.2. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi qarorlariga muvofiq 261-son va ShNK 4.01.16-09, raqobatbardosh savdolar uchun boshlang'ich qiymati Buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

7.3. Pudratchining xarajatlari, transport xarajatlari, qurilish materiallari, konstruktsiyalar, asbob-uskunalar va inventarlarning narxi ma'lumot uchun berilgan, nazorat funktsiyasi Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17-sentabrdagi 579-son qarori 1-ilova III-bob 29-bandiga asosan "Davlat ekspertizasiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachi (loyihalash jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi nuqtai nazaridan) va ishlab chiquvchini (shartnomalar bo'yicha, qabul qilingan loyiha qarorlari va yechimlari bo'yicha) zimmasiga yuklanadi.

Mutaxasis Sultonov Z.Z. ishtirokida.

Bosh mutaxassis: Nuraliyev Utkir Urmonovich 444451085

"ТАСДИҚЛАЙМАН"
Томди тумани Мактабгача таълим
бўлими мудири
_____Ж.Мирзагалиев

Томди туман Мактабгача таълим булимга карашли 8-сонли Давлат мактабгача таълим ташкилотинини жорий таъмирлаш ишлари бўйича

ТЕХНИК ВАЗИФА Томди Мактабгача таълим булими

ТАНЛОВНИНГ МАЪЛУМОТ ЖАДВАЛИ

Ушбу бўлим энг маъқул таклифларни танлаш (конкурс) мавзуларига оид аниқ қоидаларга ва танлов хужжатларининг бошқа бўлимларида келтирилган маълумотларни ёки талабларни ўз ичига олади

№	Техник вазифа мазмуни	Вазифаларга изох
1	Буюртмачи:	Навоий вилояти Томди тумани Мактабгача таълим булими
2	Танлов мазмуни ёки номи:	Томди туман Мактабгача таълим булимга карашли 8-сонли Давлат мактабгача таълим ташкилотини Санузел, Ешик терезалар, Иситиш тизими, Катёлхоналарни куриш буйича
3	Товар предмети	Махсулот номи, техник параметри ва хажми тасдикланган руйхатга асосан иловакилинади
4	Хизматлар қуйдаги манзилда амалга оширилади:	Навойи вилояти Томди туманидан 180 км узокликда жойлашган Аяк-кудук ОФЙ
5	Танлов эълон қилинган жой	Томди туман Мактабгача таълим булими
6	Алока учун шахс:	Ж.Мирзагалиев 93-460-48-92
7	Танлов эълон қилинган жой	Ўзбекистон Республикаси Товар-хом-ашё биржаси https://etender.uzex.uz/
8	Танловда қуйидаги таклифлар иштирок этиши мумкин:	Участие в конкурсе объединений юридических лиц (консорциумов) не допускается
9	Лицензияловчи учун иш тури	-
10	Танлов буйича таклифларнинг беришнинг охирги куни	Эълонлар тугашидан 10 соат олдин.
11	Танлов бериш муддати тугайдиган сана, вакт	Эълонлар тугашидан олдин 5 иш кун ичида.
12	Танлов буйича таклифларни қабул қилиб бошлаш вакти	Таклифлар танлов эълон қилинган вақтдан бошлаб қабул қилинади.
13	Конкурсда катнашувчилар тижорат (хизмат)таклифларини куриб чикиш тартиби	Электрон равишда.
14	Танлов буйича таклифларни бахолаш вакти	Конкурсда катнашувчилар таклифларини куриб чикиш ва бахолаш эълонлар вакти тугаган кундан бошлаб 3 кундан куп булмаган муддатда.
15	Размер обеспечения исполнения договора	3 % от стоимости работы, определенной по результатам конкурса
16	Буютмачиларнинг танлов буйича таклиф киладиган энг юкори нархи:	**195 970 586 (Бир юз туксон беш миллион туккиз юз етмиш минг беш юз саксан олти)**
17	Танловга таклифлар бериладиган тил:	Ўзбек
18	Молиялаштириш манбаи:	Бюджет маблағлари хисобидан
19	Шартноманинг киймат валютаси	Ўзбек сўми

Бош хисобчи в.в.б: **С.Балмаханов**

“ТАСДИҚЛАЙМАН”
Томди тумани Мактабгача таълим бўлими мудири :

Ж.Мирзагалиев

Бажарувчи ташкилотни танлаб олиш учун

ТАНЛОВ ХУЖЖАТИ

Томди - 2022

Танлов хужжатларининг мазмуни:

I. Танлов иштирокчилари учун йўриқнома
II. Техник қисм
III. Нархлар қисми

ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИСИ УЧУН ЙЎРИҚНОМА

1. ТАНЛОВ ПРЕДМЕТИ ВА ТАХМИНИЙ ҚИЙМАТИ

Танлов предмети: Томди тумани ҳокимлиги Томди тумани ҳокимлиги "Аёллар дафтари" жамғармасидан рўйхатдаги фукароларга табдиркорлигини қўллаб-қувватлаш мақсадида пиширик йўналиши учун асбоб ускуналар харид қилиш.

1.2. Танловнинг юкори қиймати –**195 970 586 (бир юз туксон беш миллион туккиз юз етмиш минг беш юз саксон олти)** сўм. Ушбу кийматдан ортиқ кийматдаги таклифлар қабул қилинмайди ва кўриб чиқилмайди.

1.3. Махсулот бўйича Техник топшириқ танлов хужжатларининг техник қисмда илова қилинган.

Ушбу танлов якунлари бўйича ғолиб чиққан бажарувчи ташкилот билан шартнома тузилади.

1.4.Ишларни бажариш муддати: Ғолиб булган катнашчи билан шартнома имзоланган кундан бошлаб тузилган нуксон далолатномасига асосан белгиланган график буйича.

1.5 Ишларни бошлаш муддати– аванс маблаги ўтказилган кундан бошлаб хисобланади.

2. ТАНЛОВ ТАШКИЛОТЧИЛАРИ

2.1. **Томди тумани ҳокимлиги** (бундан кейин-"Буюртмачи" деб аталади) - танлов ташкилотчиси ҳисобланади.

"Буюртмачи" манзили: **Ўзбекистон, Навоий вилоят Томди тумани Томдибулоқ ОФЙ Янги Томди қўрғони.**

Эл.адрес: *tomdi@mtb.uz*

2.2. Танлов "Буюртмачи" томонидан танловлар ўтказиш бўйича тузилган Харид комиссияси томонидан ўтказилади

2.3. Танлов Томди тумани ҳокимлиги "Буюртмачи" томонидан тузилган Харид комиссияси томонидан конунда белгиланган тартибда, белгиланган муддатларда ўтказилади.

3. ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИЛАРИ

3.1. Танловда мулкчилик шаклидан қатъий назар шу мазмунда иш ва хизматлар кўрсатишга ихтисослашган, камида тажрибага эга бўлган барча юридик мақомга эга бўлган ташкилотлар иштирок этиши мумкин.

3.2.Танловда иштирок этиши учун талабгорларга қуйидаги малакавий талаблар қуйилади:

анлов предмети қийматининг камида 20 фоизи миқдоридаги айланма маблағларининг урсатиб ўтилган маблағларни беришга банк кафолатномаси, ишлар (хизматлар)ни риш учун зарур бўлган меҳнат ресурслари ва мутахассисларнинг мавжудлиги;

шартномалар тузиш юзасидан фуқаролик-муомала ҳуқуқий лаёқат ва ваколатлар;

танлов объектига ўхшаш объектларда ишлаш тажрибасининг мавжудлиги;

ўз кучлари билан илгари бажарилган иш ҳажмлари тўғрисидаги маълумотлар;

танлов объектида ўз кучлари билан бажариладиган ишларнинг мўлжалланаётган ҳажми (50 фоиздан кам бўлмаган холда);

Низом маблаги миқдори.

3.3. Агар танлов предмети бўлган ишлар (хизматлар)ни бажариш билан боғлик фаолият конунчиликка биноан лицензиялаштириши зарур бўлса, танловда иштирок этиш учун белгиланган тартибга мувофиқ тегишли лицензияга эга бўлган талабгорларга рухсат этилади.

3.4. Қуйидаги талабгорларга танлов жараёнларида иштирок этишга рухсат берилмайди:

қайта ташкил этилиш (ажратилиши, қўшилиш), тугатиш ёки банкротлик арафасида турганлар; мол-мулки мусодара қилинганлар, ҳамда муассислик келишув, молиявий иштирок, холдинг ва бошқа шаклда ифодаланган бевосита ташкилий-хуқуқий ёки бир бирига молиявий қарамлиги мавжудлар.

4. ТАНЛОВДА ИШТИРОК ЭТИШ УЧУН ТАКЛИФЛАРНИ ТАКДИМ ЭТИШ

4.1. Танлов учун таклифлар ва унга тегишли иловалар ва хужжатлар, маълумотлар "Буюртмачи" ва "Иштирокчи" ихтиёрига кўра ўзбек ёки рус тилида тақдим этилиши мумкин.

4.2. танлов хужжатларида қуйидагилар тақдим этилиши лозим:

- Техник қисм. "Буюртмачи" томонидан қўйилган техник талабларни ва бажариладиган иш ва хизматлар кўрсатилиши керак;
- Нархлар қисми. Танлов шартларида белгиланган нархлар доирасида. хизматларни бажариш муддатлари, тўловлар тартиби ва якуний тўловлар ва бошка боғлиқ кўрсаткичлар кўрсатилган бўлиши керак.

Танлов иштирокчилари хар бир таклифларни яхлит холда тикилган, номерланган, ваколатли шахс имзоси ва мухр билан тасдиқланган ҳолда ёки хар бир варағини мухрлаб тасдиқланган ҳолда тақдим этишлари лозим.

4.3. Қуйидаги хужжатлар тўлиқ бўлиши талаб этилади:

Техник ва нархлар бўйича қуйидаги таклифлар:

- Техник хужжатлар руйхати (брошюралар, техник паспорлар ёки ўхшаш хужжатлар рўйхати илова қилинади);

4.4. Танлов иштирокчиси:

-фақат битта таклиф бериши мумкин;

- тақдим этилаётган хужжатларнинг ҳақиқийлиги ва маълумотларнинг ҳаққонийлигига тўлиқ жавобгар бўлади;

- таклифлар бериш муддати тугагунга қадар ўз таклифларини қайтариб олиш ёки ўзгартириш киритиш ҳуқуқига эга.

5. ТАКЛИФЛАРНИ ТАҚДИМ ЭТИШ МУДДАТИНИ УЗАЙТИРИШ

5.1. Харид комиссияси танлов учун таклифларни қабул қилиш муддатини барча иштирокчилар учун тааълуқли ҳолда эълон қилинган муддатдан яна 5- календар кунга узайтириши мумкин.

5.2.Таклифлар муддатини узайтирилиши фақат харид комиссияси йиғилиши қарори асосида амалга оширилади.

5.3. Танлов муддатини узайтириш тўғрисидаги қарор махсус ахборот порталида жойлаштирилиши лозим.

6. ТОМОНЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

6.1. Давлат харидлари тўғрисидаги Қонун талабларини бузган шахслар қонунчиликда белгиланган тартибда жавобгар бўладилар

6.2. Харид комиссияси давлат харидлари бўйича қонунчиликда белгиланган тартибда ғолиб иштирокчиларни аниқлаш ва асосланган қарор қабул қилиш бўйича мажбурдир.

6.3. Танлов иштирокчиси тақдим этилган барча хужжатларни хақиқийлиги ва тўғрилига жавобгардир. Ғолиб иштирокчи деб топилгандан сўнг қонунчиликда белгиланган тартибда давлат буюртмачиси билан ўрнатилган тартибда ва муддатларда шартнома тузишга мажбурдир.

7. БОШҚА ШАРТЛАР

7.1. Давлат буюртмачиси танлов хужжатларига ўзгартишлар киритиш тўғрисида танловда иштирок этиш учун таклифлар бериш муддати тугайдиган санадан камида уч кун олдин қарор қабул қилишга ҳақли. Товарни (ишни, хизматни) ўзгартиришга йўл қўйилмайди. Бунда ушбу танловда таклифлар бериш тугайдиган муддат танлов хужжатларига ўзгартишлар киритилган санадан эътиборан камида ўн кунга узайтирилиши керак. Шу билан бир вақтда, агар эълонда кўрсатилган ахборот ўзгартирилган бўлса, танлов ўтказиш тўғрисидаги эълонга ўзгартишлар киритилади.

7.2. Танлов иштирокчиси танлов хужжатлари қоидаларини танлов ўтказиш учун эълонда белгиланган шаклда тушунтириш талаби билан давлат буюртмачисига сўров юборишга ҳақли. Сўров келиб тушган санадан эътиборан икки иш куни ичида давлат буюртмачиси, агар мазкур сўров давлат буюртмачисига таклифлар бериш муддати тугайдиган санадан камида икки кун олдин келиб тушган бўлса, ушбу сўровга белгиланган шаклда жавоб юбориши шарт. Танлов хужжатларининг қоидаларига доир тушунтиришлар уларнинг мазмун-моҳиятини ўзгартирмаслиги керак.

7.3. Таклифларни кўриб чиқиш ва баҳолаш баённомаси харид комиссиясининг барча аъзолари томонидан имзоланади ҳамда ундан олинган кўчирма у имзоланган кундан эътиборан уч иш куни ичида махсус ахборот порталида эълон қилинади.

7.4. Танловнинг исталган иштирокчиси таклифларни кўриб чиқиш ва баҳолаш баённомаси эълон қилинганидан сўнг давлат буюртмачисига танлов натижаларига доир тушунтиришларни тақдим этиш тўғрисида сўров юборишга ҳақли. Давлат буюртмачиси бундай сўров келиб тушган санадан эътиборан уч иш куни ичида танлов иштирокчисига тегишли тушунтиришларни тақдим этиши шарт.

7.5 Танлов натижалари бўйича шартнома танлов хужжатларида ва ўзи билан шартнома тузилаётган танлов иштирокчиси томонидан берилган таклифда кўрсатилган шартлар асосида тузилади